Ijtimoiy xavfni pedagogik va psixologik belgilar asosida guruhlash bolaning rivojlanish muhitida xavf manbalarini aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash imkonini beradi. Psixologik jihatdan ijtimoiy xavf shaxsning ichki dunyosidagi izdan chiqish, ya'ni ruhiy muvozanatning buzilishi, xavotir, depressiya, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiya bilan tavsiflanadi. Ushbu holatlar ko'pincha bola ehtiyojlarining qondirilmaligi, emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi yoki salbiy muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi. Boladagi psixologik xavf belgilarini ta'lim jarayonida faollikning pasayishi, muloqotdagi yopiqlik, agressiv yoki sust xulq-atvor, diqqatning tarqoqligi va motivatsiyaning yo'qolishi kabi holatlar orqali kuzatish mumkin.

Pedagogik jihatdan esa ijtimoiy xavf ta'lim muhitidagi munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi. Ushbu holat o'qituvchi–o'quvchi, o'quvchi–o'quvchi va ota-ona–maktab munosabatlarida adolatsizlik, empatiya yetishmasligi yoki axloqiy xato ta'sirlar orqali shakllanishi mumkin. Pedagogik xavf belgilaridan biri bolaning ta'lim jarayonida o'zini xavfsiz his etmasligi, o'qish natijalarining keskin pasayishi, ijtimoiy izolyatsiyaga moyilligi va maktab muhitidagi empatik munosabatning yo'qligi hisoblanadi. Bunday holatlarda bola bilim olishni emas, balki himoya reaksiyasini ustuvor qila boshlaydi. Shu sababli ijtimoiy xavfni pedagogik va psixologik belgilar asosida guruhlash uning kompleks tabiati va ta'sir darajasini aniqlashga yordam beradi. Psixologik xavflar shaxsning ichki dunyosidagi buzilishlarni ko'rsatsa, pedagogik xavflar ta'lim muhitidagi tizimli muammolarni aks ettiradi. Har ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bola shaxsini himoya qilish va ijtimoiy xavfni kamaytirishda pedagog hamda psixolog hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy xavfni pedagogik va psixologik belgilar asosida guruhlash uning murakkab va ko'p qirrali tabiatiga oydinlik kiritadi. Psixologik jihatdan ushbu holat bolaning ichki dunyosidagi izdan chiqish, xavotir, ruhiy zo'riqish va ijtimoiy izolyatsiya orqali namoyon bo'lsa, pedagogik nuqtayi nazardan ta'lim muhitida empatiya yetishmasligi, adolatsiz munosabat va emotsional qo'llab-quvvatlashning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy xavfning ushbu ikki qirrasini ajratish bola shaxsiyatiga ta'sir etuvchi asosiy manbalarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda mashhur psixolog K. Rodgers ta'kidlaganidek: "Insonni tushunish uchun uning xulqini emas, balki u his qilgan va anglagan ichki dunyosiga nazar tashlash lozim"<sup>1</sup>. Bu fikr ijtimoiy xavfni kamaytirishda bolaning ichki ehtiyojlarini anglash va emotsional qo'llab-quvvatlashning o'рни beqiyos ekanligini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy xavfning asosiy turlari bolaning hayoti va rivojlanish muhitining turli sohalarida namoyon bo'ladi. Ularni tizimli o'rganish orqali pedagog bolaga ta'sir etuvchi xavf manbalarini aniqlab, profilaktika va qo'llab-quvvatlash choralarini belgilaydi.

Ijtimoiy xavflar bolaning hayotida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ularni, bizningcha, quyidagi turlarga ajratib o'rganish mumkin. Iqtisodiy xavf oilaviy kambag'allik, ishsizlik yoki moddiy resurslar yetishmasligi natijasida ta'lim jarayonida passivlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Pedagogik xavf ta'lim muhitidagi adolatsiz munosabat, o'qituvchi empatiyasining pastligi va psixologik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Psixoemotsional xavf bolaning hissiy beqarorligi, stress, xavotir va o'z-o'zini qadrlashning pasayishi holatlarida namoyon bo'ladi. Madaniy xavf turli etnik yoki til guruhlariga mansub bolalarning ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, madaniy izolyatsiya va identifikatsiya muammolari bilan bog'liq. Axloqiy xavf jamiyatdagi qadriyatlar tizimining buzilishi, beqaror oilaviy muhit yoki zo'ravonlik holatlari natijasida bolaning axloqiy yo'nalishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot–raqamli xavf esa raqamli muhitdagi kiberbulling, zo'ravon kontent, virtual izolyatsiya yoki manipulyativ axborot ta'siri bilan bog'liq bo'lib, bolaning psixologik barqarorligi va xavfsizligi uchun yangi turdagi tahdidni tashkil etadi.

1 Роджерс К. Становление личности: взгляд на психотерапию. – М.: Смысл, 2002. – С. 47.

**1-jadval: Ijtimoiy xavf turlarining qiyosiy jadvali**

No	Ijtimoiy xavf turi	Asosiy manba va sharoitlar	Bolada namoyon bo'lish belgilari
1	<b>Iqtisodiy xavf</b>	Kambag'allik, ishsizlik, ijtimoiy nobarqaror muhit	Ta'lim motivatsiyasining pasayishi, izolyatsiya, past o'z-o'zini baholash
2	<b>Pedagogik xavf</b>	Adolatsiz baholash, empatiya yetishmasligi, zo'ravon munosabat	O'qishdagi faollikning pasayishi, qo'rquv, yopiqlik
3	<b>Psixoebotsional xavf</b>	Ruhiy bosim, stress, oilaviy muammolar	Agressiya, xavotir, sust motivatsiya, depressiya belgilari
4	<b>Madaniy xavf</b>	Migratsiya, til to'siqlari, madaniy izolyatsiya	Muloqotda qiynalish, o'zini chetda his qilish
5	<b>Axloqiy xavf</b>	Zo'ravon muhit, axloqiy qadriyatlar buzilishi	Xulq buzilishi, mas'uliyatsizlik, manfaatparastlik
6	<b>Axborot-raqamli xavf</b>	Kiberbulling, zo'ravon kontent, virtual izolyatsiya	Hissiy beqarorlik, yolg'izlik, internetga bog'liqlik

Ijtimoiy xavf turlarining har biri bola rivojiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi, biroq ular ko'p hollarda bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, iqtisodiy xavf ko'pincha psixoebotsional yoki pedagogik xavfni kuchaytiradi, axborot xavfi esa madaniy yoki axloqiy xavf bilan uyg'un holda yuzaga keladi. Shu sababli ijtimoiy xavfni bartaraf etishda faqat bir sohada emas, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy xizmatlar integratsiyasidan iborat tizimli yondashuv talab etiladi. Ushbu yondashuv bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning rivojlanishi uchun xavfsiz va insonparvar muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bolaning shaxsiy rivojiga va ta'lim jarayonidagi ishtirokiga ko'ra ijtimoiy xavf darajalarini aniqlash mezonlari uning rivojlanish dinamikasini, psixoebotsional holatini va ta'lim muhitidagi faolligini tizimli baholash imkonini beradi. Mazkur mezonlar bolada xavf holatining qay darajada namoyon bo'layotganligini ko'rsatadi hamda pedagogik intervensiya va profilaktik choralarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xavf darajalari shartli ravishda past, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi. Ular bolaning faolligi, muloqot qobiliyati, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi bilan belgilanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy xavf omillarining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma va psixologik-pedagogik diagnostika usullari orqali yig'ildi. Shuningdek, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, muloqot darajasi, hissiy holati va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar tizimlashtirildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida qiyosiy tahlil, tasniflash, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ijtimoiy xavf turlari va ularning namoyon bo'lish darajalari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, o'quvchilarning psixoebotsional holati hamda ta'limdagi faolligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Natijalar asosida ijtimoiy xavf darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqilib, ularning pedagogik diagnostika jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy xavf darajalarini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi (2-jadval).

**2-jadval: Ijtimoiy xavf darajalarini aniqlash mezonlari**

No	Xavf darajasi	Bolaning shaxsiy rivoji belgisi	Ta'lim jarayonidagi ishtirok ko'rsatkichlari	Pedagogik tavsiyalar
1	<b>Past xavf darajasi</b>	Bolada o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari shakllangan, emotsional barqaror, ijtimoiy munosabatlarda faol	Darslarda ishtirok etishi doimiy, muloqotga ochiq, topshiriqlarni mustaqil bajaradi	Pozitiv muhitni saqlash, motivatsiyani rag'batlantirish, individual qo'llab-quvvatlash
2	<b>O'rta xavf darajasi</b>	E'tibor beqaror, hissiy o'zgaruvchanlik mavjud, o'zini past baholash kuzatiladi	Darsdagi faollik pasaygan, vazifalarni kechiktirib bajaradi, jamoadagi munosabatlari cheklangan	Psixologik maslahat, ijtimoiy faollikni kuchaytirish, faol ishtirokka jalb etish
3	<b>Yuqori xavf darajasi</b>	Ruhiy beqarorlik, xavotir, izolyatsiya, agressiv yoki sust xulq-atvor kuzatiladi	Ta'lim jarayonidagi ishtiroki kam, uzoq muddatli davomat buzilishi yoki xulq buzilishi holatlari mavjud	Tezkor pedagogik va psixologik intervensiya, oila bilan hamkorlik, ijtimoiy xizmatlar yordami



Ijtimoiy xavf darajalarini aniqlash bolaning rivojlanish trayektoriyasini individual ravishda baholashni ta'minlaydi. Agar past xavf darajasida pedagog faqat motivatsiya va ijobiy muhitni saqlashga e'tibor qaratsa, o'rta darajada qo'llab-quvvatlovchi muloqot va psixologik yordam zarur bo'ladi. Yuqori xavf darajasida esa pedagog, psixolog va ijtimoiy xizmat xodimlari o'rtasidagi hamkorlik asosida kompleks intervensiya choralari ko'rilishi lozim. Shu tariqa, xavf darajalarini aniqlash tizimi bola shaxsiyatiga mos ta'limiy strategiyalarni belgilash va uni ijtimoiy xavfdan himoya qilishning ilmiy-amaliy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy xavf omillari bola rivojiga ta'sir etuvchi eng muhim tashqi shartlardan biri hisoblanadi. Ushbu omillar, avvalo, oilaviy turmush sharoiti, moddiy imkoniyatlar, mehnat va yashash muhitining barqarorligi bilan bog'liq bo'lib, ularning buzilishi bolaning ruhiy, ma'naviy va ta'limiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kambag'allik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik, oilaviy ajrimlar yoki migratsiya holatlari bolada xavfsizlik hissining yo'qolishi, stress, motivatsiyaning pasayishi va ta'limdan uzilish holatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy xavf omillarini o'rganish nafaqat moddiy sharoit masalasi, balki bolaning ijtimoiy moslashuvi va ta'limdagi barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kambag'allik, ishsizlik, oilaviy noaniqlik va migratsiya holatlari bola ruhiyatiga chuqur ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatadigan omillar sirasiga kiradi. Kambag'allik holatida bola ko'pincha moddiy yetishmovchilik bilan bir qatorda emotsional tanqislikni ham his etadi: ota-onadagi doimiy xavotir, charchoq yoki ijtimoiy ta'na bolaning ichki tinchligini buzadi. Ishsizlik natijasida oiladagi barqarorlik yo'qoladi, bu esa bolada xavfsizlik hissining pasayishi, o'z kelajagiga ishonchsizlik, ruhiy sustlik va yolg'izlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Oilaviy ajrim, janjal yoki zo'ravonlik munosabatlari bolaning emotsional rivojini izdan chiqaradi, u kattalar dunyosida o'zini aybdor yoki keraksiz deb his qila boshlaydi. Ushbu holat ko'pincha suiqasd fikrlariga moyillik, xavotir, depressiya va xulq buzilishlarida namoyon bo'ladi.

Migratsiya esa alohida xavfli omil sifatida bolada madaniy va ijtimoiy uzilish hissini yuzaga keltiradi. Yangi muhitga moslashish jarayonida til to'siqlari, madaniy farqlar va tengdoshlar tomonidan qabul qilinmaslik uning o'z-o'zini baholashiga hamda ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bola o'z ildizlari bilan aloqani yo'qotib, "ikki dunyo orasida" qoladi. Ushbu holat pedagogik nuqtayi nazardan ijtimoiy izolyatsiya va motivatsion pasayishning kuchayishiga olib keladi.

Pedagogik amaliyotda mazkur omillarni e'tiborsiz qoldirish bola shaxsiyatida "uzluksiz xavotir holati"ni shakllantiradi. Shu sababli maktab tizimida ijtimoiy-iqtisodiy qiyin ahvoldagi oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, bolani qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish hamda moddiy resurslar yetishmasligini ruhiy quvvat va empatiya orqali muvozanatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday holatlarda pedagog nafaqat ta'lim beruvchi, balki bolaning ruhiy barqarorligini tiklovchi tarbiyaviy fasilitator sifatida ham faoliyat yuritishi lozim.

Moddiy resurslar yetishmasligi bola rivoji va ta'limdagi ishtirok faolligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida kam ta'minlangan oilalardan kelgan bolalar ko'pincha moddiy imkoniyatlar cheklanganligi sababli o'quv jarayonidagi teng imkoniyatlardan foydalana olmaydilar. Bunday holatlarda bola o'zini boshqalardan ortiqcha yoki arziyas deb his qilishi, ijtimoiy moslashuvda qiynalishi, muloqotda passivlashishi va ta'lim faoliyatida izolyatsiya holatiga tushishi mumkin. Psixologik jihatdan ushbu passivlik ko'pincha "ijtimoiy kamsitishga qarshi himoya reaksiyasi" sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni bola faol ishtirok etishdan qochib, o'zini chetga oladi.

Shu sababli moddiy resurslar yetishmasligi faqat iqtisodiy emas, balki pedagogik va psixologik muammo sifatida ham baholanishi lozim. Ta'lim muassasalarida bunday bolalar uchun moddiy yordam, ijtimoiy ta'minot va empatik muhitni ta'minlash orqali ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olish mumkin. Bu holatni amerikalik pedagog E. Erikson quyidagicha ifodalagan: "Ijtimoiy muhitda o'zini keraksiz deb his qilgan bola faqat bilimga emas, umidga ham bo'lgan ishonchini yo'qotadi"<sup>2</sup>. Ushbu fikr shundan dalolat beradiki, moddiy resurslar yetishmasligi ta'lim jarayonida faqat moddiy to'siq emas, balki bolaning shaxsiy qadr-qimmatini va ijtimoiy faolligiga ta'sir etuvchi muhim psixologik xavf omili hisoblanadi.

Ijtimoiy-maishiy muhitdagi beqarorlik bola rivojining ruhiy, ma'naviy va ta'limiy jihatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi ichki ziddiyatlar, noaniq munosabatlar, vaqt va mehr yetishmasligi, uy-joy sharoitining yomonligi kabi omillar bolada xavfsizlik hissining yo'qolishiga hamda barqaror emotsional fonning buzilishiga sabab bo'ladi. Ushbu holat bolaning ta'lim motivatsiyasida ham o'z aksini topadi: u bilim olishga qiziqishni yo'qotadi, faol ishtirokdan chetlashadi va o'zini foydali yoki muhim deb his qilmay qo'yadi. Bunday muhitda ulg'aygan bola ko'pincha tashqi stress omillariga haddan tashqari sezgir bo'lib, o'quv faoliyatida yo'nalishini yo'qotadi. Uning diqqat va xotira qobiliyati pasayadi, topshiriqlarni bajarishda mas'uliyatsizlik yoki sustlik namoyon bo'ladi. Psixologik nuqtayi nazardan ushbu holat "ichki motivatsiya inqirozi" sifatida talqin etiladi, ya'ni bola ta'lim faoliyatini shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilmay qo'yadi.

2 Эриксон Э. Детство и общество. – М.: АСТ, 2000. – С. 112.

Ijtimoiy-maishiy beqaror muhitdagi bolalar bilan ishlashda o'qituvchi va pedagogik jamoa nafaqat ta'limiy, balki emotsional qo'llab-quvvatlovchi vazifani ham bajarishi lozim. Pozitiv munosabat, ishonch, empatiya va muloqot orqali bolaning ichki xavfsizlik hissini tiklash uning ta'limga bo'lgan qiziqishini qayta faollashtiradi. Ushbu holatni falsafiy jihatdan tavsiflagan L.S. Vigotskiy shunday ta'kidlaydi: "Bola faoliyatga faqat hissiy xavfsiz muhitda ongli ravishda qo'shiladi; qo'rquv va beqaror muhit uning rivojlanishini to'xtatadi"<sup>3</sup>. Demak, ijtimoiy-maishiy beqarorlik ta'lim motivatsiyasini pasaytiruvchi muhim xavf omili bo'lib, uni bartaraf etishning asosiy yo'li bolaga emotsional himoya va ijtimoiy barqaror muhit yaratishdan iboratdir.

Psixologik va pedagogik xavf turlari bola rivojlanishining ichki (psixologik) va tashqi (pedagogik muhit) omillari o'rtasidagi muvozanat buzilishi natijasida shakllanadi. Psixologik xavflar bolaning hissiy beqarorligi, xavotir, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi, izolyatsiya yoki agressiya kabi holatlarda namoyon bo'lsa, pedagogik xavflar ta'lim jarayonida empatiyaning yetishmasligi, adolatsiz munosabat, emotsional bosim va ta'lim muhitining nosog'lomligi bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu ikki xavf turi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan birining kuchayishi ikkinchisining yuzaga kelishini tezlashtiradi. Masalan, pedagogik xavf muhitida bola o'zini himoyasiz his etadi va bu holat ruhiy beqarorlikka aylanishi mumkin, psixologik xavfning ortishi esa ta'lim faoliyatida passivlik va motivatsiyaning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shu bois psixologik va pedagogik xavflarni tizimli o'rganish bolani himoya qilish, uning ta'limga bo'lgan ishonchini tiklash hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

E'tiborsizlik, zo'ravonlik, yordamdan mahrum bo'lish va empatiya yetishmasligi orqali yuzaga keladigan psixologik xavf holatlari bolaning ichki dunyosidagi izdan chiqish, ya'ni uning ruhiy barqarorligi va xavfsizlik hissining buzilishi bilan tavsiflanadi. E'tiborsiz muhitda ulg'aygan bola o'z his-tuyg'ularining ahamiyatsizligiga ishona boshlaydi, uning "men" konsepsiyasi zaiflashadi hamda ijtimoiy munosabatlarda passivlik yoki haddan tashqari himoya reaksiyasi namoyon bo'ladi. Zo'ravonlik faqat jismoniy ta'sir emas, balki so'z, tahqirlash yoki empatiyasiz munosabat orqali ham amalga oshadigan psixologik jarohatdir. U bolaning ishonchini yo'qotib, doimiy xavotir va qo'rquv holatini shakllantiradi, bu esa ta'lim jarayonidagi faollikning keskin pasayishiga olib keladi.

Emotsional yoki ijtimoiy ko'makdan mahrum bo'lish bolani ichki izolyatsiyaga olib keladi. Bunday bolalar ko'pincha "men foydasizman", "mening fikrim ahamiyatsiz" degan ichki ishonchsizlikni qabul qilib, ijtimoiy rivojlanishdan uzila boshlaydilar. Empatiya yetishmasligi esa bola va kattalar o'rtasidagi ruhiy bog'lanishni zaiflashtiradi, bu esa ta'lim muhitining psixologik xavfsizligini buzadi. Bunday holatlarda bola emotsional quvvatni yo'qotadi, taassurotlarga haddan tashqari sezgir bo'lib qoladi va stressni boshqarish qobiliyati pasayadi. Buni amerikalik psixolog K. Rodjers quyidagicha izohlaydi: "Agar inson hissiyotlariga javob olmasa, uning ichki dunyosidagi tinchlik izdan chiqadi va u o'zini dunyoda yolg'iz deb his etadi"<sup>4</sup>. Shu bois bolada psixologik xavf holatlarini erta aniqlash va bartaraf etish uchun pedagogik muhitda ehtiyotkorlik, empatiya va emotsional qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Bu esa bolaning ichki barqarorligini tiklab, uning ta'lim va ijtimoiy faolligidagi ishonchini qayta mustahkamlaydi.

Ta'lim muhitidagi stress, qo'rquv, adolatsiz baholash va emotsional bosim bolaning psixik barqarorligi hamda ta'lim motivatsiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Stress muhitida bola o'zini xavfsiz his etmaydi, uning diqqat va xotira qobiliyati pasayadi, ijodiy fikrlash faoliyati cheklanadi. Qo'rquv, ayniqsa, jazo, masxara yoki salbiy baholanish xavfi, bolada ta'lim jarayoniga nisbatan emotsional qarshilikni yuzaga keltiradi. Natijada u faol ishtirokdan voz kechadi yoki xato qilishdan qo'rqib, ijodiy ifoda imkoniyatlarini yo'qotadi.

Adolatsiz baholash bola rivojiga nisbatan noqonuniy psixologik bosim shakli bo'lib, u ishonchni susaytiradi, motivatsiyani yo'qotadi va ta'lim jarayonini "o'zini isbotlash emas, balki jazodan qochish" usuliga aylantiradi. Emotsional bosim esa pedagogik munosabatdagi haddan tashqari talabchanlik, so'z orqali tahqirlash yoki faoliyatni doimiy nazorat qilish orqali namoyon bo'lib, bolaning ichki avtonomiyasi va shaxsiy qadr-qimmat hissini buzadi. Bunday muhitda ulg'aygan bola ko'pincha passiv, ishonchsiz va ijtimoiy izolyatsiyaga moyil bo'ladi. Uning ta'limdagi ishtiroki majburiy xarakterga ega bo'lib, "bilgisi kelgani uchun emas, qo'rqqani uchun" faoliyat yuritadi.

Ushbu holatni amerikalik psixolog A. Maslou quyidagicha izohlaydi: "Qo'rquv muhitida inson bilimga intilishi emas, balki himoyaga bo'lgan ehtiyoji bilan harakat qiladi"<sup>5</sup>. Shu sababli ta'lim muhitida stress va emotsional bosimni bartaraf etish, adolatli baholash tizimini joriy etish hamda bola uchun psixologik xavfsiz muhit yaratish pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Bu nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki bolaning shaxsiy qadr-qimmatini saqlaydi va uning ijtimoiy moslashuvini mustahkamlaydi.

Pedagogik xavf sifatida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi xato ta'sirlar ta'lim jarayonida ko'pincha bilmasdan yoki nazoratsiz ravishda yuzaga keladi va bola rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xato ta'sirlar emotsional zo'ravonlik, empatiya yetishmasligi, adolatsiz baholash, individual ehtiyojlarni inkor etish, qo'pol

3 Выготский Л. С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – С. 142.

4 Роджерс К. Становление личности: взгляд на психотерапию. – М.: Смысл, 2002. – С. 119.

5 Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2004. – С. 67.



muloqot yoki ustuvor nazorat orqali namoyon bo'ladi. Natijada bola o'zini qadrsiz his etadi, ta'lim faolligi pasayadi, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy charchoq holati yuzaga keladi. Bunday muhitda bola ta'lim jarayonini ijobiy tajriba sifatida emas, balki xavf manbai sifatida qabul qila boshlaydi.

Xato pedagogik ta'sirlarning oldini olish, avvalo, o'qituvchida refleksiv madaniyat va empatik muloqot qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir bola shaxsini qadrlash, uning ehtiyojlarini tinglash va individual farqlarini inobatga olishni o'z kasbiy faoliyatining asosiy qismi sifatida qabul qilishi lozim. Shuningdek, fasilitatorlik pozitsiyasini shakllantirish, ya'ni ta'lim jarayonida nazorat qiluvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va ruhlantiruvchi shaxs bo'lish pedagogik xavfni kamaytirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda "hissiy xavfsiz muhit" yaratish muhim ahamiyatga ega: har bir bola xatolar orqali o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi, fikrini erkin bildirishi va adolatli munosabatni his qilishi lozim. Ta'lim amaliyotida buni ta'minlash uchun refleksiv muloqot, hissiy qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik va ishonchga asoslangan tarbiya usullarini joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu masalaga doir fikrni pedagogika klassigi A.V. Mudrik quyidagicha ifodalagan: "Ta'limdagi har qanday zo'ravon ta'sir bola shaxsiyatining tabiiy o'sishini to'xtatadi; muhit qanchalik insonparvar bo'lsa, o'quvchi shunchalik erkin va mas'ul bo'lib voyaga yetadi"<sup>6</sup>. Shu ma'noda, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida pedagogik xavfning oldini olish ta'limda insonparvar paradigmani qaror toptirish, bola shaxsiyatini hurmat qilish va hamkorlik muhitini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Madaniy va til to'siqlari bolaning jamiyatga moslashish jarayonidagi eng jiddiy ijtimoiy xavf omillaridan hisoblanadi. Migrant yoki boshqa madaniy muhitdan kelgan bolalar ko'pincha yangi til muhitida muloqot qilishda qiynaladilar, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik tufayli izolyatsiyaga moyil bo'ladilar. Ushbu holat ularning ta'lim jarayonidagi faolligini pasaytiradi, ishonchsizlik, yolg'izlik va emotsional stress holatlarini kuchaytiradi. Til to'sig'i madaniy identifikatsiyani zaiflashtirib, bolada "ikki madaniyat orasida qolish" holatini yuzaga keltiradi. Shu sababli pedagoglar migrant bolalarning madaniy adaptatsiyasini yengillashtirish uchun inklyuziv ta'lim muhitini yaratishlari, tilni o'rganishda vizual, verbal va interfaol usullardan foydalanishlari, hamjihatlik va tolerantlik qadriyatlarini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ushbu fikrni L.S. Vigotskiyning quyidagi ta'kidi asoslaydi: "Har qanday ta'lim bolaning madaniy muhiti bilan hamnafas bo'lmasa, u faqat ma'lumot emas, ayni paytda begonolashuv ham beradi".

Zamonaviy raqamli muhitda bolalar axborot xavflariga duch kelmoqdalar, jumladan, kiberbulling, virtual izolyatsiya va zo'ravon kontentning ruhiy ta'siri. Kiberbulling internet orqali tahqirlash, shantaj qilish yoki boshqalarning shaxsiy hududiga tajovuz qilish bo'lib, u bolaning emotsional barqarorligini buzadi va suitsidga moyil fikrlarni kuchaytiradi. Virtual izolyatsiya bolaning real muloqotdan uzilib, faqat onlayn muhitda yashashga odatlanishi natijasida ijtimoiy kompetensiyalarning susayishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, zo'ravon kontent yosh ongda tajovuzkorlik va qo'rquv hissini kuchaytiradi hamda axloqiy mezonlarni izdan chiqaradi. Shu sababli raqamli xavflarni kamaytirish uchun bolalarda media savodxonlik, axborotni tanlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik zarurat hisoblanadi<sup>7</sup>.

Media va raqamli muhitda bola xavfsizligini ta'minlashda pedagogning roli hal qiluvchidir. O'qituvchi faqat ta'lim beruvchi emas, balki axborot muhitini baholay oladigan, xavfli kontentni aniqlaydigan va bolani undan himoya qiladigan mas'ul shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Pedagog bolalarga raqamli etika, axborot xavfsizligi va internetdan mas'uliyatli foydalanish qoidalarini o'rgatishi, onlayn muloqotdagi axloqiy normalarni singdirishi kerak. Shuningdek, maktabda raqamli xavflarni monitoring qilish, axborot xavfsizligi bo'yicha interfaol darslar o'tkazish va ota-onalar bilan hamkorlikda profilaktik ishlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu masala bo'yicha zamonaviy pedagog J.L. Andrews quyidagicha ta'kidlaydi: "Raqamli xavfsizlik bu faqat texnik masala emas, balki ta'limiy mas'uliyatning yangi shaklidir"<sup>8</sup>.

Umuman olganda, madaniy va axborot-raqamli xavflar bolaning shaxsiy rivoji, ta'lim motivatsiyasi hamda ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadigan global muammolardan biri bo'lib, ularni kamaytirishning asosiy yo'li madaniy inklyuziya, raqamli savodxonlik va pedagogik mas'uliyatni kuchaytirishdan iboratdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf bolalarida ijtimoiy xavflarning namoyon bo'lish xususiyatlari yosh psixologiyasi, ta'lim muhiti va oilaviy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ushbu yosh davrida bola jismoniy va ruhiy rivojlanishning muhim bosqichida bo'lib, uning hissiy barqarorligi, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari va ta'limga bo'lgan munosabati tez o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi. Shu sababli ijtimoiy xavflar ko'pincha ochiq shaklda emas, balki xulq-atvor, muloqot, diqqat va motivatsiyadagi o'zgarishlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, qo'rquv, yopiqlik, agressiya, haddan tashqari itoatkorlik yoki izolyatsiya bolaning xavf muhitida ekanligidan dalolat beruvchi belgilar hisoblanadi.

6 Mudrik A. V. Социализация и воспитание личности. – М.: Академия, 2008. – С. 94.

7 Выготский Л. С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – С. 153.

8 Andrews J. L. Digital Education and Child Protection. – London: Routledge, 2021. – P. 74.

Psixologik nuqtayi nazardan boshlang'ich sinf yoshidagi bolada ruhiy himoya mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli u pedagogik muhitdagi har qanday e'tiborsizlik yoki salbiy munosabatni og'ir qabul qiladi. Demak, ushbu yosh davrida ijtimoiy xavflarning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash va ularning ildiz sabablarini o'z vaqtida bartaraf etish bola rivojining barqarorligi hamda ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Роджерс К. Становление личности: взгляд на психотерапию. – М.: Смысл, 2002. – С. 47.
2. Andrews J. L. Digital Education and Child Protection. – London: Routledge, 2021. – P. 74.
3. Мудрик А. В. Социализация и воспитание личности. – М.: Академия, 2008. – С. 94.
4. Выготский Л. С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – С. 153.
5. Роджерс К. Становление личности: взгляд на психотерапию. – М.: Смысл, 2002. – С. 119.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2004. – С. 67.
7. Эриксон Э. Детство и общество. – М.: АСТ, 2000. – С. 112.
8. Выготский Л. С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – С. 142.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.